


“TASDIQLAYMAN”



2025-yil 25-dekabr

Toshkent shahri

“O‘zsanotqurilishbank” ATB faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish yuzasidan

YIG‘ILISH BAYONI 18

Raislik qiluvchi:

Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari -
Sh. Ismoilov

Qatnashdilar:

Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati
xodimlari

KUN TARTIBI:

“O‘zsanotqurilishbank” ATB faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish yuzasidan

Kun tartibidagi masala yuzasidan majlisni Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari - Sh. Ismoilov ochib berdi.

Yig‘ilishda “O‘zsanotqurilishbank” ATBda raqamlashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashda o‘zgarishlar va istiqboldagi rejalar keng muhokama qilindi.

Ta’kidlab o‘tilishicha, bank tizimida raqamlashtirish nafaqat tezkor va qulay xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi, balki korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu maqsadda bank tomonidan yetakchi xalqaro moliya institutlari, jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Natijada bank faoliyatida qator zamonaviy yechimlar joriy etilgan. Jumladan, “SQB Mobile” va “SQB Business” mobil ilovalari ishga tushirilgan bo‘lib, hozirgi kunda ular orqali millionlab mijozlar bank xizmatlaridan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, kredit ajratishning markazlashtirilgan andarrayting tizimini joriy etish orqali jismoniy shaxslarning kredit hujjatlarini ko‘rib chiqish muddati sezilarli darajada qisqartirilgan. Kredit ajratish jarayonining raqamlashtirilishi natijasida byurokratik to‘siqlar kamayib, korrupsion xavflarning oldi olinmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro pul o‘tkazmalari jarayonida SWIFT GPI-treking hamda SWIFT Payment Controls xizmatlari orqali shaffoflik va xavfsizlik ta‘minlanmoqda. “CROBS” dasturida elektron deklaratsiya tizimi orqali xodimlarning manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalar topshirish jarayoni avtomatlashtirilgan.

Yig‘ilish davomida bank faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar ham qayd etildi. Xususan, bankda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil etilgan, xalqaro ISO 37001:2016 antikorrupsiya standartiga muvofiq sertifikat olingan hamda bir qator xodimlar xalqaro komplayens yo‘nalishida malaka oshirgan.

Shuningdek, bank tomonidan jamoatchilik bilan ochiq muloqotni rivojlantirish maqsadida jurnalistlar va blogerlar ishtirokida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari muntazam ravishda tashkil etib kelinayotgani ta‘kidlandi.

Yig‘ilish davomida bank faoliyatida axborot ochiqligini ta‘minlash, jamoatchilik bilan samarali muloqotni rivojlantirish hamda mijozlar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

Muhokama natijasida quyidagi takliflar bildirildi:

1. Bankning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida bank faoliyatiga oid axborotlarni muntazam ravishda yangilab borish hamda jamoatchilik uchun ochiq ma‘lumotlar hajmini kengaytirish.

2. Bank faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida matbuot brifinglari va ochiq muloqot tadbirlarini tashkil etish.

3. Mijozlar murojaatlari, takliflari va fikr-mulohazalarini qabul qilish uchun elektron murojaat platformasi imkoniyatlarini takomillashtirish.

4. Bank xizmatlari sifati hamda mijozlar qoniqish darajasini o‘rganish maqsadida muntazam ravishda so‘rovnomalar o‘tkazish.

5. Bankda aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha ma‘lumotlarni Bankning rasmiy-veb saytida ochiqlash.

Qaror qilindi:

1. Bank faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha bildirilgan takliflar ma‘qullansin.











2. Takliflarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli tarkibiy bo‘linmalarga vazifalar yuklatilsin.

3. Bank faoliyatida ochiqlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan davriy tahlil olib borilsin.

Majlis kotibi:

A.Kurbanov

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmat xodimlari

T/r	F.I.SH.	Lavozim	Imzo
1.	Toyirov Mirzohid Zamonovich	Xizmat rahbari o'rinbosari	
2.	Kurdashev Suhrob Noryigitovich	Bosh menejer	
3.	Tojiyev Abdug'ofur G'olibjonovich	Bosh menejer	
4.	Botirov Akmal Kodirovich	Katta menejer	
5.	Muxiddinov Nosiriddin Isomiddin o'g'li	Yetakchi menejer	
6.	Yuldashev Komiljon Abdumanopovich	Yetakchi menejer	
7.	Annakulov Otabek Abdihashimovich	Yetakchi menejer	
8.	O'rozov Hasan To'Ynazarovich	Yetakchi menejer	
9.	Raximov Xasan Toxirovich	Menejer	
10.	Shanazarov Shoxrux Shavkatovich	Menejer	
11.	Muborakov Zoxid Xamidxonovich	Menejer	
12.	Yuldashev Aminjon Muhiddinovich	Menejer	
13.	Navruzov Sherzod Shavkatovich	Menejer	